

**MIGRATSIYAGA OID DAVLAT SIYOSATI DOIRASIDA YANGI MEHNAT  
BOZORLARINI SHAKLLANTIRISH ISTIQBOLLARI**

**Madaminova D.I. -**  
*TDYuU professori v.b. (DSc)*

Globalashuv jarayonlari va mehnat resurslarining xalqaro miqyosdagi faollashuvi tobora ortib borayotgan sharoitda migratsiya borasidagi davlat siyosati ustuvor ahamiyat kasb etishi tabiiy. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoevning 2025 yilning 26 dekabr kuni Oliy Majlis va O'zbekiston xalqiga yo'llagan Murojaatnomasida aholi bandligini ta'minlash, mehnat migratsiyasini tizimli boshqarish va yangi ish o'rinlarini yaratish ustuvor vazifa sifatida belgilangan. Shu nuqtayi nazardan, migratsiyaga oid davlat siyosati doirasida yangi mehnat bozorlarini shakllantirish istiqbollarini ilmiy jihatdan tahlil qilish dolzarb ahamiyat kasb etadi. Xalqaro maydonda siyosiy jarayonlarning tezkor o'zgarib borishi sharoitida migratsion oqimlarning harakatlanish ko'lami ham tobora ortib, global ahamiyat kasb etib bormoqda. O'z mohiyatiga ko'ra, migratsiya jarayoni aholining mahalliy va xalqaro miqyosdagi ko'chishlari bilan xarakterlanib, bunda ularning yashash joyida doimiy yoki vaqtinchalik o'zgarishlar kuzatiladi. Bu esa, o'z navbatida ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy va madaniy sohalar rivojiga o'z ta'sirini ko'rsatishi tabiiy. Turli soha vakillari tomonidan migratsiya omilining keng tadqiq etilishi, uning sabab va oqibatlari ko'laminin nihoyatda kengligi hamda bu borada fanlararo yondashuv zaruratining yuzaga kelayotgani bilan bog'lash mumkin. Migratsion oqimlar dunyoning turli mintaqalarida o'zini turlicha namoyon etmoqda. Buni aholi sonining keskin ortishi fonida ish o'rinlarining qisqarib borishi, turli an'anava sivilizatsiyalar, turli din va millat vakillarining o'zaro to'qnashuvi, noqonuniy migratsiyaning avj olishi ortidan (norasmiy bandlik ko'laminin ortishi hisobiga) milliy iqtisodiyotning yemirilishi, hududiy nizo va ziddiyatlarning avj olishi kabi holatlarda namoyon bo'layotganini kuzatishimiz mumkin. Tabiiyki, bu kabi muammolar davlatlararo munosabatlarning keskinlashuvi va xalqaro muvozanatning buzilishiga sabab bo'lmoqda. Yuqoridagilardan kelib chiqib, dunyo mamlakatlaridan har biri oldida samarali migratsion siyosatni ishlab chiqish va amalga oshirish bilan bog'liq dolzarb vazifa qo'yilishi tabiiy.

Ilmiy nuqtai nazardan migratsiya va u bilan bog'liq qator kategoriyalar mohiyatini ochib beruvchi umume'tirof etilgan ta'riflar mavjud emas. Shunga ko'ra, ilmiy tadqiqotlarda migratsiya kategoriyasiga nisbatan turli xil ta'riflarni uchratish mumkin. Migratsiya – bu aholining yashash va ishlash maqsadida bir joydan ikkinchi joyga ko'chishidir [1]. Ayni paytda, migratsiyaga oid ikki xil tushuncha mavjud, ya'ni ichki va tashqi (xalqaro) migratsiya. Ta'kidlash joizki, milliy davlat chegarasidan o'tib, xorijga chiqqan har qanday shaxs migrant hisoblanmaydi: turistlar, xizmat safarini uyushtirganlar va boshqalar shular jumlasidandir.

Umuman olganda, "migratsiya" ko'p qirrali tushuncha bo'lgani bois, u ilmiy doirada turlicha talqin etiladi. Mazkur tushunchaning kelib chiqishi, lotin tilidagi "migratio" so'zi bilan bog'liq bo'lib, "ko'chish", "siljish" kabi ma'nolarni anglatadi [2]. Maxsus adabiyotlar tahlili, ushbu tushunchadan keng va tor ma'noda foydalanish mumkinligini ko'rsatadi.

Keng ma'noda migratsiya davomiyligi, uzluksizligi va maqsadli ekanligidan qat'iy nazar, bir yoki bir necha ma'muriy-hududiy birliklar o'rtasida amalga oshiriluvchi hududiy ko'chishlarni anglatadi.

Tor ma'noda esa, doimiy yashash joyining o'zgarishi bilan yakun topgan hududiy ko'chish jarayoni tushuniladi [3]. Lug'atlarda ushbu atamaga turlicha ta'rif berilgan. Xususan, "Britannika ensiklopediyasi"da migratsiyaga "muayyan shaxs yoki bir guruh shaxslar tomonidan yashash joyining yakuniy tarzda o'zgartirilishi" sifatida ta'rif beriladi [4]. Vebster lug'atiga ko'ra, "migratsiyalashuv" deganda, "bir hududdan boshqasiga ko'chish" tushuniladi [5].

Tadqiqotimiz doirasida migratsiya omili, uning ijtimoiy-iqtisodiy ahamiyati, xalqaro siyosiy madaniy jarayonlar, xususan xavfsizlik sohasiga ta'siri bilan bog'liq masalalarni tahlil qilishda E.G. Ravenshteyn [6], S.A. Stouffer [7] va Waever Ole [8] kabi olimlarning asarlaridan foydalanilgan.

Mazkur tadqiqot doirasida global ahamiyatga ega bo'lgan migratsiya muammosi va uning atrofida kechayotgan siyosiy jarayonlar, mazkur jarayonlarning O'zbekistonning ichki va tashqi siyosatiga ta'siri hamda bu borada qonunchilikni takomillashtirish bilan bog'liq muammolar bu borada so'nggi yillarda olib borilayotgan tadqiqotlarga tayangan holda o'tkazilgan. Ushbu masalaning mohiyatini ochib berish maqsadida Global Firepower, SIPRI va Stimson Center kabi nufuzli "think tank"lar tomonidan e'lon qilingan hisobot va tahlillar, shuningdek, OAVning mavjud materiallari o'rganildi. Tadqiqot doirasida, asosan, mazmuniy tahlil (content analysis) va sifat tahlili (qualitative analysis) metodlaridan keng foydalanildi. Bundan tashqari, maqolani tayyorlashda qiyosiy-huquqiy, statistik va tarixiy metodlarga ham tayanildi.

Ma'lumki, migratsion jarayonlarning ahamiyati globallashtirish va xalqaro mehnat taqsimotining chuqurlashuvi sharoitida tobora dolzarb ahamiyat kasb etib bormoqda. Zero, aynan migratsion jarayonlar davlatlarning ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotiga jiddiy ta'sir ko'rsatuvchi omillardan biriga aylanib bormoqda. O'zbekistonda demografik o'sish sur'atlarining jadal kechishi, mehnatga layoqatli bo'lgan aholi sonining ortishiga bu esa, o'z navbatida, mehnat bozorida bosimning kuchayishiga sabab bo'lmoqda. Mazkur jarayonning jadal sur'atlarda kechishi, ya'ni ish o'rinlarining son va shakl jihatidan o'zgarishi hamda mazmun jihatidan yangi ma'no va mazmun kasb etishi kabilar zamonaviy axborot texnologiyalarining rivoji, raqamlashtirish borasidagi davlat siyosatining takomillashtirilishi hamda sun'iy intellektning jamiyat hayotining turli sohalariga faol kirib borishi bilan xarakterlanadi. Murojaatnomada ta'kidlanganidek, yaqin yillar ichida 30 foizga yaqin kasblarning avtomatlashtirilishi hamda 50 foizga yaqin kasblar bo'yicha yangi bilim va malakalarning talab etilishi ko'zda tutilgan.

Shu boisdan, davlat siyosatida migratsiya masalasiga alohida e'tibor qaratilib, aholi bandligini ta'minlash, mehnat migratsiyasini huquqiy va institutsional jihatdan tartibga solish ustuvor vazifa etib belgilanmoqda. Bu boradagi yondashuvlar ham yangicha ma'no va mazmun kasb etmoqda. Endilikda mahalliy va xalqaro mehnat bozorlaridagi o'rnimizni mustahkamlashda kasb, malaka, ta'lim va texnologiyalarni o'zida birdek birlashtira oladigan yagona mexanizmni joriy etish yo'lidan qadam tashlanmoqda.

Shu maqsadda, yoshlarni o'z qiziqishlaridan kelib chiqqan holda, muayyan kasblarga yo'naltirish, shuningdek, kelgusida oliy ta'lim muassasalarida bilim olishni davom ettirish istagida bo'lmaganlarni texnikumlarga jalb qilish va shu tariqa, raqobatbardosh kadrlarni tayyorlashga erishish hamda xalqaro mehnat bozorlarida munosib o'rin egallashga erishish ko'zda tutilgan.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoevning Oliy Majlis va O'zbekiston xalqiga yo'llagan Murojaatnomasida mazkur masala yuzasidan quyidagi fikrlar bayon etilgan: "Mening niyatim – yoshlarimiz talab yuqori bo'lgan kasblar bo'yicha dunyoda raqobatdosh bo'lsin, kerak bo'lsa, boshqalardan bir pog'ona ustun tursin. Ushbu maqsadga erishish yo'lida kasbiy ta'limning eng muhim bo'g'ini bo'lgan texnikumlarni yangi sifat bosqichiga olib chiqamiz. Buning uchun, 2026 yildan boshlab, har yili kamida 100 tadan texnikumni to'liq ta'mirlab, texnologik va talab yuqori bo'lgan kasblarga mos holda jihozlab boramiz. Germaniya, Shveysariya, Buyuk Britaniya, Xitoy, Koreya kabi davlatlarning ilg'or ta'lim dasturlari joriy qilingan texnikumlar sonini 100 taga yetkazamiz" [9].

Davlatimiz rahbari tomonidan har yili mehnat bozoriga 300 mingdan ziyod oliy ma'lumotli kadrlar kirib kelayotgani ham ma'lum qilingan. Shunga ko'ra, davlatimiz oldiga mavjud kadrlarni munosib ish o'rinlari bilan ta'minlash bilan bog'liq muhim vazifa qo'yilgan. Shu maqsadda, endilikda oliy ta'lim muassasalari bitiruvchilari va ish beruvchi o'rtasida izchil hamkorlikni o'rnatish va bu borada raqamli texnologiyalardan samarali foydalanish ko'zda tutilgan. Shunga ko'ra, talabning akademik ko'rsatkichlari hamda korxonalar va tashkilotlardagi bo'sh ish o'rinlari haqidagi ma'lumotlarni onlayn tarzda taqdim etish imkonini beruvchi raqamli ekotizim joriy qilinishi ma'lum qilindi. Bu esa, o'z navbatida, OTM bitiruvchilarining munosib ish o'rinlari bilan ta'minlanishi hamda korxonalar va tashkilotlarni yangi malakali kadrlarga bo'lgan ehtiyojlarining qondirilishiga xizmat qiladi.

Xulosa o'rnida ta'kidlash joizki, davlatimiz tomonidan olib borilayotgan migratsiya siyosati mehnat bozori bilan uzviy bog'liq bo'lib, ular o'rtasidagi o'zaro aloqadorlik ikki yo'nalishda

namoyon boʻladi. Bir tomondan, mehnat bozorlaridagi mavjud talab va takliflar muvozanati migratsiya jarayonlarini belgilashda muhim oʻrin egallaydi. Ikkinchidan esa, migratsion oqimlar mehnat bozorining tarkibiy tuzilmasiga sezilarli taʼsir koʻrsatadi. Shunga koʻra, yangi mehnat bozorlarini shakllantirishda raqamli iqtisodiyot va axborot texnologiyalari, logistika, turizm, taʼlim, tibbiyot kabi xizmat koʻrsatish sohalari hamda masofaviy mehnat va frilans xizmatlarini rivojlantirish kabilarga alohida eʼtibor qaratiladi. Bu jarayonlar mehnat migratsiyasini kamaytirish bilan birga, aholining ichki bandligini taʼminlashga xizmat qiladi.

Oʻzbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyevning Oliy Majlis va Oʻzbekiston xalqiga yoʻllagan murojaatnomasida migratsion jarayonlarga ijtimoiy siyosatning muhim tarkibiy qismi sifatida eʼtibor qaratilganini eʼtiborga olgan holda, quyidagi bir qator masalalarga ilmiy-tadqiqot ishlari doirasida izlanishlar olib borish tavsiya etiladi:

- mehnat migratsiyasini tartibga solishning huquqiy mexanizmlarini takomillashtirish;
- xorijiy davlatlarda mehnat qilayotgan fuqarolarning huquq va manfaatlarini himoya qilish;
- ichki mehnat bozorini rivojlantirish orqali tashqi migratsiyaga boʻlgan ehtiyojni kamaytirish;
- kasbiy taʼlim va qayta tayyorlash tizimini bozor talablariga moslashtirish kabilar shular jumlasidandir.

Yuqorida sanab oʻtilgan holatlar migratsiyaga oid davlat siyosatini ijtimoiy yoʻnaltirishga hamda bu borada inson kapitaliga tayanilishiga xizmat qiladi. Bir soʻz bilan aytganda, yangi mehnat bozorlarini shakllantirish orqali aholi bandligini taʼminlash, ishsizlik darajasini qisqartirish, ijtimoiy barqarorlikni taʼminlash hamda aholi daromadlarining oshishiga erishish bilan bogʻliq boʻlgan ijtimoiy-iqtisodiy natijalarga erishish mumkin boʻladi. Shuningdek, yangi mehnat bozorlarining rivojlanishi iqtisodiyotning diversifikatsiyalashuviga, bu esa, oʻz navbatida, tashqi mehnat bozorlariga boʻlgan qaramlikni qisqartirish hamda ichki iqtisodiy salohiyatdan samarali foydalanishga xizmat qiladi.

#### ADABIYOTLAR:

1. Wickramasinghe W. (2017). International migration and migration theories. *Social Affairs: A Journal for the Social Sciences* 5(1). 13-32.
2. Ushakova D. (2000). *Tolkovy slovar russkogo yazyka*. – Moskva, – T. 1. – S. 247.
3. Rybakovskiy L. (1987). *Migratsiya naseleniya: prognozy, faktory, politika*. – M.: Nauka, – S. 26.
4. *Ensiklopediya Britannika*.
5. *Slovar Merriam-Vebster*.
6. Ravenstein E.G. The laws of migration // *Journal of the Royal Statistical Society*. – 1989. – Vol. 52(2). – PP. 241-305.
7. Stouffer S.A., “Intervening Opportunities: A Theory Relating Mobility and Distance” // *American Sociological Review*
8. Waever Ole. *Securitization and Desecuritization*. - New York: Columbia University Press, 1995. – P. 51.

#### REZYUME:

Maqolada Oʻzbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyevning 2025 yilning 26 dekabr kuni Oliy Majlis va Oʻzbekiston xalqiga yoʻllagan Murojaatnomasi belgilangan ustuvor yoʻnalishlar asosida migratsiya sohasidagi davlat siyosatining mazmuni tahlil qilinadi hamda yangi mehnat bozorlarini shakllantirish istiqbollari yoritiladi.

**Kalit soʻzlar:** migratsiya siyosati, mehnat bozori, davlat siyosati, bandlik, inson kapitali, iqtisodiy rivojlanish.

#### РЕЗЮМЕ:

В статье анализируется содержание государственной политики в области миграции на основе приоритетных направлений, установленных в Послании Президента Республики Узбекистан Ш.М. Мирзиёева к Олий Меджлису и народу Узбекистана от 26 декабря 2025 года, и освещаются перспективы формирования новых рынков труда.

**RESUME:**

The article analyzes the content of the state policy in the field of migration based on the priority areas established in the Address of the President of the Republic of Uzbekistan Sh.M. Mirziyoyev to the Oliy Majlis and the people of Uzbekistan dated December 26, 2025, and highlights the prospects for the formation of new labor markets.

**Keywords:** migration policy, labor market, public policy, employment, human capital, economic development.